



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Xamidova Zarina Iskandar qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi va  
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2 bosqich guruh magistranti*

**Yusupova Barnoxon Kadirovna**

*Surxondaryo viloyati Termiz tumani 22-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabning  
ona tili va adabiyot fanidan 1-toifali o'qituvchisi*

**Suvonova Risolat Ziyoyevna**

*Surxondaryo viloyati Termiz tumani 22-sonli Umumiy o'rta ta'lim maktabning  
ona tili va adabiyot fanidan 2-toifali o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish, o'quvchilar ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, o'zaro hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarni ravon bayon etishga chorlashi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, adabiyot, dars, innovatsion texnologiya, metod, o'yin masofaviy ta'lim.*

PECULIARITIES OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN NATIVE  
LANGUAGE AND LITERATURE CLASSES

**Abstract:** *This article argues that the use of innovative technologies in native language and literature lessons at schools, using interactive methods, encourages students to think creatively, solve issues actively, express ideas freely, take initiative, work collaboratively, express ideas in precisely.*

**Keywords:** *native language, literature, lesson, innovative technology, method, game, distance learning and teaching.*

**Kirish.** O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida



interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'рни beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, endi o'qituvchidan an'anaviy darsdan noan'anaviy darsga o'tish talab etiladi: Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari: a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish; b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash; d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish; e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo. Noan'anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi, Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Bu kabi interaktive metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanilishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savoljavob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatlari va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi. Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga



ega.Chunki, bolalarni charchatmaslik va ularni oqilona tanlangan 3-4 daqiqalik harakatli o'yilar orqali miyaga va mushaklarga dam berish ham ustozning vazifasi hisoblanadi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, hozirgi zamon bilan bog'lash orqali ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ham oshirib borish, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berilishi lozim. Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida computer texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarni yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi.

Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi. Ayniqsa hozirgi butun dunyoga tarqalishga ulgurgan COVID -19 pandemiyasi sharoitidan kelib chiqilsa, o'qituvchida yana bir imkoniyat bu audio va video darslarning masofaviy ta'lik uchun yaratilishi va o'ero, online ta'lim yurtimiz ta'lim tizimini qamrab olar ekan, televideniya orqali efirga uzatilayotgan online dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quvchilar uchun tanish bo'lgan sevimli ustozlari tomonidan yaratilgan qo'shimcha darslar ularga kuch, motivatsiya va albatta qo'shimcha bilim bera oladi.

**Natijalar:** Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birgalikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

**Muhokama:** Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va



faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

**Xulosa qilib aytganda**, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayxislamov, N. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education, 2020.
2. Shayxislamov, N., Baykabilov, U. Til – millatning ma'naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari, 2020.
3. Xolbekov, S. B. Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education, 2020.
4. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.